

"O'zbekimiyosanoat" AJ va KOICA yosh olimlarning kimyo sohasidagi ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashda davom etadi

// 13.02.2025

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimiyosanoat-aj-va-koica-yosh-olimlarning-kimyo-sohasidagi>



Shu yilning 3 va 12-fevral kunlari "O'zbekimiyosanoat" AJ va Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi tashabbusi bilan tashkil etilgan stipendiya dasturining navbatdagi g'oliblari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirda stipendiya g'oliblari Rustam Yo'ldoshev va Nodira Saidovalarga maxsus yo'riqnomalar topshirildi. Endi ular Koreya Fan va Texnologiya Universitetida (UST) doktorantura hamda magistratura bosqichlarida ilmiy izlanishlarini davom ettiradi.

Ma'lumot uchun ta'kidlash joiz, mamlakatimiz kimyo sanoati raqobatbardoshligini oshirish, sohada innovatsiyalarni rivojlantirish, zamonaviy infratuzilma yaratish va malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan ushbu loyiha boshlanganidan buyon 11 nafar talaba magistratura, 7 nafari doktorantura bosqichlarida dastur g'oliblariga aylandi.

"O'zkiyosanoat" AJ vakillari va KOICAning O'zbekistondagi vakolatxonasi direktori o'rinbosari Park Seongmin dastur g'oliblarini ushbu muhim yutuq bilan tabriklab, ularning kelgusi ilmiy faoliyatlariga muvaffaqiyat tiladilar.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati